

AXBOROT PORTALLARINING YOSH AVLOD TARBIYASIGA TA’SIRI: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Matkarimov Zokirjon Husandjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot portallari va ommaviy raqamli platformalarning yosh avlod tarbiyasiga ko’rsatayotgan ijobjiy va salbiy ta’sirlari tahlil qilinadi. Internetda keng tarqagan yangiliklar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot vositalari yoshlarning ongini shakllantirish, qadriyatlar tizimini belgilash, hayotga bo’lgan qarashlariga ta’sir ko’rsatish quvvatiga ega. Maqolada zamonaviy o’smir va yoshlar axborot oqimi ichida o’z yo’lini topishi uchun zarur bo’lgan mediamadaniyat, tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligini shakllantirish zarurati asoslanadi. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va davlat muassasalari uchun muhim amaliy tavsiyalar to’g’risida so’z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axborot portali, yoshlar tarbiyasi, media ta’siri, ijtimoiy tarmoq, axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, mediamadaniyat, zamonaviy tahdidlar.

Bugungi kunda axborot portallari yosh avlod ongiga kuchli ta’sir ko’rsatuvchi asosiy manbara aylangan. Ilgari tarbiya jarayoni asosan oila, maktab va mahalla orqali olib borilgan bo’lsa, hozirda internet va axborot resurslari bolalarning hayotida yetakchi o’ringa chiqmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida yoshlar har qanday ma’lumotga tez va erkin kirish imkoniga ega bo’lmoqda. Biroq bu holat tarbiya jarayoniga bir vaqtning o’zida foydali va xavfli ta’sirlarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun zamonaviy axborot muhitini chuqur tahlil qilish va yoshlar bilan ishlashning yangi metodlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

1. Axborot portallarining yoshlari ongiga ta’siri.

Yoshlar zamonaviy texnologiyalar vositasida har kuni yangiliklar saytlariga, ijtimoiy tarmoqlarga, bloglar va videoplatformalarga murojaat qiladi. Bu axborot manbalari ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda kuchli omilga aylanmoqda. Ayniqsa, yosh ong hali barq urib ulgurmagan davrda manba sifati, mazmuni va ishonchliligi bo’lmagan axborotlar psixologik holatga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Masalan, zo’ravonlik, ekstremizm, iste’molchilik kayfiyatlarini targ’ib qiluvchi materiallar ko’plab ochiq platformalarda tarqalmoqda. Bunday holatlar yoshlarning ijtimoiy faolligini pasaytirishi, milliy qadriyatlardan begonalashuvi, yolg’on ma’lumotlarni haqiqat deb qabul qilishi bilan xavflidir.

2. Ijobjiy imkoniyatlar va tarbiyaviy resurslar

Shu bilan birga, axborot portallari yoshlari tarbiyasida kuchli ijobjiy omilga ham aylanishi mumkin. Elektron darsliklar, ma’naviy-ma’rifiy videolar, interaktiv ta’lim platformalari, milliy qadriyatlarni targ’ib qiluvchi veb-resurslar orqali yoshlari ongiga sog’lom fikrlarni singdirish mumkin.

Masalan, O’zbekistonda davlat tomonidan yaratilayotgan ma’naviyat.uz, ziyouz.com, ta’lim.uz kabi resurslar yoshlarni bilimga undaydi, milliy g’urur va tarixiy ongni shakllantirishda xizmat qiladi. Bu kabi portallarni yoshlar orasida ommalashtirish maqsadida ta’lim muassasalari va oilalar bilan hamkorlikda ish olib borilishi zarur.

3. Muammolar tahlili: xavflar va e’tiborsizlik

Ko’plab oilalarda bolalarning internetdan foydalanishi ustidan nazorat yetarli darajada emas. Ba’zi hollarda ota-onalar bolalarni tinch qo’yish maqsadida ularga telefon yoki planshet topshirib qo’yadi, natijada bola ijtimoiy tarmoqlar va axborot portallarida o’z holiga tashlab qo’yiladi. Bu esa uning axborot bozorida yo’nalishsiz qolishiga olib keladi.

Boshqa muammo – bolalar va o’smirlar ko’pincha yolg’on yangiliklar, feyk axborotlar va manipulyatsion kontentni ajrata olmaydi. Bu esa ularning ishonchini suiiste’mol qilinishiga, ruhiy tushkunlikka yoki noto‘g’ri qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin.

4. Tavsiyalar va yechimlar:

- Media savodxonlikni shakllantirish: maktab dasturlariga axborot texnologiyalari va media madaniyati bo‘yicha maxsus fanlar kiritilishi lozim. Bu orqali o’quvchilar manbani tahlil qilish, fakt va fikrni ajratish, axborotni tekshirish ko’nikmalariga ega bo’ladi.

- Ota-onalar va ustozlar uchun treninglar tashkil etish: bolalarning internet faoliyatini sog’lom nazorat qilish, salbiy ta’sirlarni aniqlash va unga qarshi kurashish yo’llarini o’rgatish lozim.

- Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy foydali kontent yaratishni qo’llab-quvvatlash: yoshlar orasida mashhur bo’lgan formatlarda (vlog, podcast, animatsiya) foydali, ma’naviy boy axborotlar tayyorlash muhim.

- Yoshlarning o’zlarini ham kontent yaratuvchi sifatida jalg’ish etish: ular uchun tanlovlardan, grantlar va ijodiy platformalar orqali ularni ijtimoiy mas’uliyatli bloger yoki axborot targ’ibotchisiga aylantirish mumkin.

XULOSA:

Zamonaviy axborot portallari yosh avlod tarbiyasida ikkiyoqlama rol o’ynaydi. Ular to‘g’ri boshqarilsa, milliy qadriyatlar, ma’naviyat va tafakkur rivojiga xizmat qiladi, aks holda esa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, axborot oqimida yoshlar yo’nalishsiz qolmasligi uchun davlat, oila va ta’lim muassasalari birgalikda harakat qilishi kerak. Mediadamaniyatni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb tarbiyaviy vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR.

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(3), 80–97.